FUTBOL O‘YINIDA TEXNIK USUL VA TAKTIK HARAKATLARGA O‘RGATISH BOSQICHLARI

S.X.Xabibullayev - CHDPU.,dotsent v.b.

xabibullayevsamandar931@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda yosh futbolchilarning texnik-taktik harakatlarga o‘rgatish bosqichlarining maqsadi, vazifalari va uslublari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Dastlabki, chuqur, mustahkamlash, takomillashtirish, taktik, texnik, tayyorgarlik, bosqich, o‘rgarish, stereotip, yaxlit, kinematik, dinamik.

Kirish:. Ko‘p yillik mashg‘ulotning barcha bosqichlarida texnik usullar va taktik harakatlarga o‘rgatish jarayoni uzluksiz davom etadi. Maqsadga muvofiq texnikaning barcha tomonlarini biomexanika qonunlaridan foydalanish asosida va shug‘ullanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda puxta o‘zlashtirish o‘yin faoliyatining murakkab sharoitlarida texnikaning muvaffa-qiyatli qo‘llanishini oldindan belgilab beradi. Mukammal o‘yin ko‘nikmalarining shakllanishi yosh futbolchilarning yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-son

“Futbolni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va srort sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’, 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va rrofessional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tezisda muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘qitish jarayonining tuzilishi.

Alohida texnik usul va taktik harakatni o‘rganish quyidagi bosqichlarga ajratiladi:

- dastlabki o‘rganish;
- chuqur o‘rganish;
- mustahkamlash va yanada takomillashtirish.

Har bir bosqich bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, shu xususiyatlarni hisobga olgan holda konkret vazifalar qo‘yiladi va o‘qitish (o‘rgatish) ning ratsional uslubi tanlanadi.

Dastlabki o‘rganish. Bu bosqichning asosiy maqsadi - o‘rgatilayotgan usul yoki harakat asoslarini o‘zlashtirib olish.

Konkret bir harakatni uning asosiy variantida bajarish ko‘nikmalarini shakllantirishdagi dastlabki urinishlar bosh miya qobig‘ida dinamik stereotip hosil qilishga qaratilgan va bosh miya qobig‘idagi nerv jarayonlarining irradiasiyasi bilan xarakterlanadi. Bolalarda ichki tormozlanish etarlicha rivojlanmagan bo‘ladi. Bularning hammasi ko‘pincha o‘rganilayotgan harakatning kinematik va dinamik xarakteristikalarining noaniq esga tushirilishiga, uning ritmining beqarorligiga. Kerak bo‘lmagan qo‘shimcha harakatlarga sabab bo‘ladi.

Mazkur bosqichning asosiy vazifasi - shug‘ullanuvchilarda bajarilayotgan harakat va shu harakat asosiy elementlarining yaxlit tasavvurini (ko‘rish orqali) va harakat sezgisini paydo qilish, harakat ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda hal etiladi.

Harakatni dastlabki o‘rganish u bilan tanishishdan boshlanadi. Bunga uslublar kompleksi yordamida erishiladi. Og‘zaki tushuntirish, ko‘rsatish va mashq uslublaridan foydalaniladi. Og‘zaki tushuntirishda harakatning aniq terminologik nomi beriladi, uning ahamiyati va o‘yin sharoitlarida qo‘llaniladigan o‘rni haqidagi ma’lumotlar aytiladi, bajarish prinsiplari tushuntiriladi. Bolalar diqqat- e’tiborining beqarorligi, hajmi esa kichikligi sababli tushuntirish aniq, qisqa va obrazli bo‘lishi kerak.

Ikkinchi signal sistemasi orqali hosil qilinadigan ko‘ruv tasavvurlari ko‘rsatmalilikni ta’minlash uslublaridan foydalanish bilan to‘ldiriladi. Bular

birinchi signal tizimi orqali ta’sir etib, o‘rganilayotgan harakatlarning konkret obrazlarini hosil qilishga yordam beradi. Bevosita namoyish qilish (ko‘rsatish) ko‘rsatmalilikni ta’minlashning asosiy uslubidir. Namoyish qilish faqat tashqi formasi bo‘yichagina namunali bo‘lishi kerak emas. Harakatning muvaqqat, fazoviy va kuch xarakteristikalarini optimal ravishda qayta esga olib boriladi. Bu esa harakatning tez va puxta idrok qilinishini ta’minlaydi.

Harakat sezgilarini hosil qilish uchun mashq uslublaridan foydalaniladi. O‘rganilayotgan harakat nisbatan doimiy va soddalashtirilgan sharoitda esga tushiriladi. Futbol o‘yini texnikasi va taktikasini o‘rgatishda ko‘proq yaxlit mashq uslubidan foydalaniladi, chunki harakatlarni bo‘laklarga bo‘lib yuborish ko‘pincha ularning mohiyatini qo‘pol ravishda buzishga olib keladi

Takrorlash me’yorini aniqlashda yangi, koordinatsion jihatdan murakkab mashqlar yosh futbolchilarda tegishli nerv markazlarining charchashiga sabab bo‘lishini hisobga olish lozim. Shuning uchun mazkur bosqichda mashqlarni seriyali takrorlash juda samarali bo‘ladi. O‘rganuvchilar har birida 8-10 ta takrorlashi bo‘lgan 2-3 seriyani bajaradilar. Seriyalar oralig‘idagi intervallar dam olish uchun yetarli bo‘lishi kerak. Ulardan zarur fikrlarni aytish va mashqni takroriy ko‘rsatish uchun ham foydalanish mumkin. Yangi materialni o‘rganish keyingi 3-5 ta dars mobaynida davom ettiriladi.

Chuqur o‘rganish. Bu bosqich texnik va taktik harakatlarning yanada mustahkamlanishi va o‘rganilayotgan harakat detallarining chuqurroq aniqlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Usul yoki harakatni o‘zlashtirib olish jarayonida dastlabki ko‘nikmalar takomillashadi, texnik usullar ham, taktik harakatlar ham to‘g‘ri, aniq, bemalol bajarila boshlanadi.

Chuqur o‘rganish bosqichini shug‘ullanuvchilarning harakat sezgilarini ongli ravishda baholay olishi va joyni idrok qila bilishi o‘rgatish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa mufassal (batafsil) so‘zlab berish va suhbat, harakatlarni tushuntirish va chuqurroq tahlil qilish, o‘z-o‘zini tekshirish, hisobot berish va shu kabi og‘zaki uslublarni qo‘llash imkonini beradi. Bevosita ko‘rsatish ko‘rsatma qurollar: foto va kinomateriallar, plakatlar, rasmlar, sxema va hokazolardan keng foydalanish bilan to‘ldiriladi. Harakatning borishi va uning asosiy parametrlari haqida zudlik bilan axborot berishning xilma-xil vositalari keraklicha samara beradi.

Mazkur bosqichda asosan yaxlit mashqlardan foydalaniladi. Bu mashqlar qat’iy bir maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bir xilda (bir xil sharoitda, bir maqsadni ko‘zda tutuvchi, harakat parametrlari bir xil) bo‘lgan takrorlashlar soni kamayadi. O‘zgaruvchan takrorlashlar soni ancha oshiriladi. Mashq o‘rganilayotgan vaziyat sharoitlari almashtiriladi va murakkablashtiriladi. Mashqni

bajarish vazifalari o‘zgartiriladi. Bu hol harakat formalari va xarakterining, ularning fazoviy vaqt va kuch xarakteristikalarining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. O‘rganilayotgan harakatlarni maksimal tezlik va kuch-g‘ayratga yaqin tezlik va kuch-g‘ayrat bilan bajarishga urinib ko‘riladi. Bunda texnik va taktik harakatlar bajarilish vaqtida buzilmasligi, mo‘ljallangan aniqlik esa yo‘l qo‘yilgan chegarada bo‘lishi muhimdir. Bir qolipdagi o‘zgaruvchan takrorlashlar nisbati taxminan 30 va 70% ni tashkil etadi.

Harakat amallarining ko‘p variantlarda bajarilishi turli xil analizator tizimlarining faoliyatiga oshirilgan talablar qo‘yadi va bajarilayotgan harakatlar to‘g‘risida aniq tasavvurlarning hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Bir darsdagi takrorlashlar soni oshiriladi. O‘rganilayotgan harakat 10-12 daqiqa davomida takrorlanadi, shundan so‘ng 3,5-5 daqiqa boshqa mashqlar bajariladi. O‘yin mashqlarini boshqa mashq tarzida qo‘llash ancha samaralidir. So‘ngra yana o‘shancha vaqt davomida harakatni ko‘p marta takrorlash lozim.

Darslar tizimida chuqur o‘rganish katta intervallar bilan olib borilishi mumkin. Bu darsga yangi material kiritish imkonini beradi.

Mazkur bosqichda o‘yin va musobaqa uslublaridan keng foydalaniladi, bular alohida emotsional fon yaratadi, mashqlarning ta’sirini kuchaytiradi va o‘qitish jarayonini faollashtiradi.

Mustahkamlash va yanada takomillashtirish.

Bu bosqichning asosiy vazifasi - o‘zlashtirib olingan harakatlarni yanada mustahkamlash va turli xil o‘yin sharoitlarida ularni qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish. Mazkur bosqichda jismoniy tarbiya uslublarining barcha komplekslaridan foydalaniladi.

Xulosa. Ko‘p yillik mashg‘ulotning barcha bosqichlarida texnik usullar va taktik harakatlarga o‘rgatish jarayoni uzluksiz davom etadi. Har bir bosqich bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, shu xususiyatlarni hisobga olgan holda konkret vazifalar qo‘yiladi va o‘qitish (o‘rgatish) ning ratsional uslubi tanlanadi.

Dastlabki o‘rganish. Bu bosqichda o‘rgatilayotgan usul yoki harakat asoslarini o‘zlashtirib olish, shug‘ullanuvchilarda bajarilayotgan harakat haqida yaxlit tasavvur paydo qilinadi.

Chuqur o‘rganish. Bu bosqich texnik va taktik harakatlarning yanada mustahkamlanishi va o‘rganilayotgan harakat detallarining chuqurroq aniqlashtirilishi bilan xarakterlanadi. Usul yoki harakatni o‘zlashtirib olish jarayonida dastlabki ko‘nikmalar takomillashadi, texnik usullar ham, taktik harakatlar ham to‘g‘ri, aniq, bemalol bajarila boshlanadi. Mazkur bosqichda asosan yaxlit mashqlardan foydalaniladi.

Mustahkamlash va yanada takomillashtirish. Bu bosqichda o‘zlashtirib olingan harakatlarni yanada mustahkamlash va turli xil o‘yin sharoitlarida ularni

qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik.-T.: 2015.-218 b.
2. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik-taktik tayyorlash. O‘quv qo‘llanma.-T.: 2005.-15-68 b.
3. Kuryazov R. Yosh futbolchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi. Uslubiy qo‘llanma. -Toshkent.: O‘zDJTI, 2012. 11-22-b.

5. Xabibullayev S.X. Futbol va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. "Zebo print" nashriyoti. Toshkent, 2024.